

JAHON VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA KO'P TILLILIK(MULTILINGUALISM) TENDENSIYALARI

Musurmanova Umida Farhod qizi

O'zDJTU, Sharq filologiyasi fakulteti 2522-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **Jumayeva Umida Abdurahim qizi**

Annotatsiya. Ushbu maqola jahon va o'zbek tilshunosligida ikki tillilik va ko'p tillilikning rivojlanish dinamikasi, lingvokulturologik tadqiqotlarning nazariy va metodologik asoslarini tahlil qiladi. Shuningdek ko'p tillilik tushunchasi, globalizatsiya jarayonidagi o'rni, zamonaviy lingvistik tajribalardagi ahamiyati hamda ko'p tillilikning ijtimoiy, madaniy va ta'limiy jihatlari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Ko'p tillilik, bilingvizm, globalizatsiya, til siyosati, lingvokulturologiya, til kompetensiyasi, translanguaging, ijtimoiy tilshunoslik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются динамика развития двуязычия и многоязычия в мировой и узбекской лингвистике с особым акцентом на теоретические и методологические основы лингвокультурологических исследований. Кроме того, в работе анализируется понятие многоязычия, его роль в контексте глобализации, а также его значимость в современных лингвистических исследованиях. Особое внимание уделяется социальным, культурным и образовательным аспектам многоязычия.

Ключевие слова: Многоязычие, билингвизм, глобализация, языковая политика, лингвокультурология, языковая компетенция, транслингвизм, социолингвистика.

Abstract. This article examines the developmental dynamics of bilingualism and multilingualism in both global and Uzbek linguistics, with a particular focus on the theoretical and methodological foundations of linguocultural studies. Furthermore, it explores the concept of multilingualism, its role within the context of globalization, and its significance in contemporary linguistic research. The study also addresses the social, cultural, and educational dimensions of multilingualism.

Keywords: Multilingualism, bilingualism, globalization, language policy, linguocultural studies, language competence, translanguaging, sociolinguistics.

Kirish. Tilshunoslik fanida ko'p tillilik(multilingualism) va ikki tillilik(bilingualism) sohalari ko'plab yillardan beri chuqur va samarali o'rganilib kelinmoqda. Turli mamlakatlar va madaniyatlar o'rtasidagi aloqalarning kuchayishi natijasida bir necha tilni bilish ehtiyojlari ortib bormoqda.

Asosiy qism. Ko'p tillilik(monolingualism) va ikki tillilik(bilingualism) o'zbek tilshunosligida ham jahon tilshunosligida ham muhim sotsiolingvistik hodisalar hisoblanadi va turli sohalarda turlicha tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Tadqiqot jarayonlari shuni ko'rsatadiki ,ikki va ko'p tillilik insonning kognitiv(aqliy) qobiliyatlarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Masalan, Kanadadagi York universiteti tadqiqotiga ko'ra ,bilingiv bolalar diqqatni jamlashda bir tilda so'zlashuvchi tengdoshlariga qaraganda yaxshiroq natijalarga erishgan. (Peal, E. & Lambert, W. E (1962) 163).

Shuningdek dunyodagi eng mashhur olimlardan biri Ellie Bialystockning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bilingvizm miyaning "ijro etuvchi funksiyalarini" kuchaytiradi. Xususan, bilingvlar bir vazifadan ikkinchisiga o'tishda va

chalgituvchi ma'lumotlarni filtrlashda ancha tezkor va aniqroq harakat qiladilar. Bu jarayon miyada "kognitiv zaxira" hosil qiladi, natijada miya qarigan chog'da ham o'zining strukturaviy yaxlitligini uzoqroq saqlab qola oladi. (The journal of Nature reviews Neuroscience, 2017, 605-sahifa)

Bu shuni ko'rsatadiki ko'p va ikki tillilik nafaqat ikki yoki undan ortiq tilni bilish, balki intellektual moslashuvchanlik yani aqliy chaqqonlikni ham belgilab berar ekan. Ingliz olimi Bakerni fikriga ko'ra: "Agar XX asrda bilingvizm shunchaki ikkinchi tilni qaralgan bo'lsa, XXI asr jahon tilshunosligida u kognitiv moslashuvchanlik va ijtimoiy kapital sifatida baholanmoqda". (Baker, 2021, 104-sahifa)

O'zbekistonda ham ko'p tillilik tarixan shakllangan tabiiy jarayon bo'lib, hozirda bu tendensiya uch tillilik, yani "o'zbek-ingliz-rus" tillariga o'tmoqda. Professor H. Dadaboyev o'zbek tilshunosligida termin hosil qilish va tillararo aloqalar masalasini tahlil qilar ekan, ko'p tillilikning milliy terminologiya rivojiga ta'sirini ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, globallasuv davrida o'zbek tili lug'at tarkibining boyishi aynan ko'p tillilik muhitidagi faol neologizmlar hisobiga sodir bo'lmoqda. (Bakiyeva, G., & Ghelichi, J. (2011) 45-sahifa)

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda ta'lim tizimidagi ko'p tillilik tendensiyalari tahlil qilinganda, ingliz tilining "uchinchi til" (o'zbek va rus tillaridan keyin) sifatida o'zni keskin oshgani ko'rsatiladi. Tadqiqotda aytilishicha, zamonaviy o'zbek yoshlari tillarni ijtimoiy status va iqtisodiy imkoniyat sifatida ko'radi. (Bakiyeva, G., & Ghelichi, J. (2011) 82-sahifa)

Zamonaviy tendensiya: Kognitiv va ijtimoiy integratsiya. Kognitiv integratsiya deganda, ikki yoki undan ortiq tillarning inson miyasida yagona va dinamik tizim sifatida amal qilishi tushuniladi. Bu jarayon nafaqat axborotni turli tillarda qabul qilish, balki intellektning moslashuvchanligini oshirish, xotira hajmini kengaytirish va qaror qabul qilish tezligini kuchaytirishga xizmat qiladi. (Bialystok, E. (2011). Reshaping the mind: The benefits of bilingualism. 229–235-sahifalar).

O'z navbatida, Ijtimoiy integratsiya bilingv shaxsning turli madaniy qatlamlar orasida "ko'prik" vazifasini o'tashini anglatadi. Ko'p tili shaxslar ijtimoiy muloqotda bag'rikenglik (tolerantlik) va empatiya darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi, bu esa ularning zamonaviy mehnat bozori va xalqaro hamjamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi.

Quyidagi jadvalda ushbu ikki yo'nalishning zamonaviy tendensiyalari va ularning ilmiy asoslari qiyosiy tahlil qilingan. (Kinzler, K. D. (2020). How You Say It: Why You Talk the Way You Do—And What It Says About You. 84–92-sahifalar)

Xulosa. Jahon va o'zbek tilshunosligida ko'p tillilikni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu jarayon shaxsning kognitiv va ijtimoiy salohiyatini birlashtiruvchi strategik resursdir. O'tkazilgan tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Kognitiv jihatdan: Ikki yoki undan ortiq tillarning miyada yagona dinamik tizim sifatida amal qilishi kognitiv moslashuvchanlikni oshiradi, axborotni qayta ishlashni tezlashtiradi va miyaning funksional zaxirasini (neyroplastiklikni) mustahkamlaydi.

Ijtimoiy jihatdan: Ko'p tili shaxslar madaniyatlararo "ko'prik" vazifasini o'tab, yuqori darajadagi empatiya va tolerantlik namoyon etadilar. Bu ko'nikmalar ularning global mehnat bozori va xalqaro hamjamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Zamonaviy o'zbek tilshunosligida ko'p tillilik tendensiyalari nafaqat lingvistik hodisa, balki intellektual salohiyat va ijtimoiy barqarorlikni yuksaltiruvchi muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. A. Nurmonov: "Struktur tilshunoslik" (tizim

sifatida qarash bo'yicha). Safarov, Sh. (2006). Kognitiv tilshunoslik. (Milliy lingvistik asoslar bo'yicha).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baker, C. (2011). Foundations of Bilingual Education and Bilingualism (5th ed.). Bristol: Multilingual Matters. pp. 45–67.
2. Grosjean, F. (2010). Bilingual: Life and Reality. Cambridge, MA: Harvard University Press. pp. 12–30.
3. García, O., & Wei, L. (2014). Translanguaging: Language, Bilingualism and Education. London: Palgrave Macmillan. pp. 78–102.
4. Crystal, D. (2003). English as a Global Language (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press. pp. 55–70.
5. Maher, J. C. (2017). Multilingualism: A Very Short Introduction. Oxford: Oxford University Press. pp. 1–25.
6. Cummins, J. (2000). Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. Clevedon: Multilingual Matters. pp. 34–60.
7. UNESCO. (2019). World Atlas of Languages. Paris: UNESCO Publishing. pp. 10–18.
8. Hoffmann, C. (1991). An Introduction to Bilingualism. London: Longman. pp. 90–115.
9. Wei, L. (2018). Translanguaging as a Practical Theory of Language. Applied Linguistics, 39(1), pp. 9–30.
10. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. (2020). O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Toshkent. pp. 25–40.
11. Sh. Safarov. (2008). Kognitiv tilshunoslik asoslari. Toshkent: Fan. pp. 120–135.
12. N. Mahmudov. (2012). Til va madaniyat. Toshkent: O'zbekiston. pp. 50–65.